



SINF TARBIVAVIY SOATLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Bovanova Umida Abduvahobovna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi v.b dotsent
Tirkasheva Nilufar Zafarjon qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti 4-kurs talabasi

Elektron pochta:

umidabovanova8@gmail.com

nilufartirkasheva5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17581345>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Avgust 2025 yil
Ma'qullandi: 28- Avgust 2025 yil
Nashr qilindi: 31- Avgust 2025 yil

KEYWORDS

Ta'lim, didaktik materiallar, nizom, pedagog, to'garak, muloqot tarbiyaviy soat, sinf rahbari, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyat, o'quvchi shaxsini shakllantirish.

ABSTRACT

Ushbu maqola sinf tarbiyaviy soatlari haqida kengroq ma'lumot olishga, sinf tarbiyaviy soatlarini qanday tashkil qilinishi va ularning turlari haqida ma'lumotlar jamlashga yordam beradi. Maqolada sinf tarbiyaviy soatlari tushunchasi, ularning maqsadi va ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi o'rni yoritilgan. Tarbiyaviy soatlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi roli, darslarning mazmuni va metodikasini to'g'ri tanlash zarurati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy soatlar samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 187-sonli Qarori e'lon qilindi. Shu munosabat bilan tarbiyaviy soatlar mazmunan qayta k'rib chiqilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshiradi. Ma'lumki, sinf rahbari o'z sinfidagi o'quvchilarning bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'ul shaxs hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me'yoriy hujjatlar va Xalq ta'limi vazirligining 2007 yil 20 yanvardagi 19-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ta'lim muassasalari sinf rahbari to'g'risidagi Nizom" asosida tashkil etiladi. Mazkur dastur va metodik qo'llanma yuqorida nomlari keltirilgan ta'limga oid huquqiy va me'yoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy o'rta ta'limning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

Dasturning maqsadi –tarbiyaviy soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon

talablariga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Tarbiyaviy soat dasturining vazifalari:

- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta'sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o'quvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ba'zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, o'z fikrini og'zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas'uliyatning yetishmasligi, atrofida gilar bilan kelisha olmasligi, o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larni to'g'ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Shuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

"Ta'lim muassasalari sinf rahbari to'g'risidagi Nizom"ga asosan Sinf rahbari – Ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo'lib, o'ziga biriktirilgan sinf o'quvchilarining amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda ta'lim muassasalari sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga o'xshash muammolar ko'zga tashlanmoqda:

- ayrim sinf rahbarlari tomonidan o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida o'z oldilariga qo'ygan maqsad va vazifalarining to'g'ri tashkil etilmaganligi;
- tarbiyaviy soatlarning aniq o'quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning ko'pchiligidan o'qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- ba'zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- ayrim ta'lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o'quvchilar mavjudligi;
- ba'zi sinflardagi o'quvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- ayrim o'quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- o'quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- voyaga yetmaganlar ortasida turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- ba'zi o'qituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligining pastligi;
- ota-onalar bilan samarali muloqotning yo'lga qo'yilmaganligi;
- huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkohol mahsulotlarini iste'mol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Sinf tarbiyaviy soatlari maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Sinf tarbiyaviy soatlari quyidagi: ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi singari

uch asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Ma'rifiy tarkibiy qismda: o'quv dasturlaridan tashqari, o'quvchilarning etik, estetik, ruhiy tushunchalarni, fan-texnika, xalq xo'jaligi, dunyo voqealarini boyitib, kengaytirib borishdan iborat ishlar amalga oshiriladi.

Baholovchi tarkibiy qismda: o'quvchilarda atrof-muhitga muayyan munosabatda bo'lish, undagi moddiy va ma'naviy boyliklarimizning bahosi, ahamiyati va qadr-qimmatini, mehnat kishilari va Vatanimiz himoyachilarining shon-shuhrati, ona Vatanimizning, ulug' xalqimizning shuhrati haqidagi tegishli tushunchalarni hosil qilish va mustahkam qaror toptirishdan iborat sifatlar ro'yobga chiqariladi.

"Inson va insoniy munosabatlar". Bunda jamiyatimizdagi insoniy munosabatlar, jonajon maktabi, o'qituvchilari o'z ota-onasi qarindosh urug'i, do'stlari va boshqa kishilarga, jamoat mulkiga, ona Vatan Boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostg'o'ylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish.

Tarbiyaviy soatlar uchun maktab o'quvchilari va o'qituvchi tarbiyachilarga mo'ljallangan hamda ommabop gazeta va jurnallar, pedagogikaga oid va bolalar tarbiyasiga doir badiiy adabiyot namunalari, kinolavha, kinofilm, diafilm va radio eshittirish va teleko'rsatuvlardan, tarbiya mavzusiga yo'naltirilgan va shu kungi o'quvchilar uchun dolzarb, hayotiy materiallardan tanlab olishlari kerak.

Shundagina sinf o'quvchilarining qaynoq ijodiy faoliyati ta'minlangan bo'ladi. Bunday vaqtlarda o'quvtexnika vositalari, ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallardan unumli foydalanish esa so'zsiz sinf tarbiyaviy soatlarini yanada ijobiy natijalarga olib keladi.

Sinf tarbiyaviy soati tarbiyaviy ishning ajralmas qismi bo'lib o'quvchilar uchun ham, sinf rahbari uchun ham amaliy-ijodiy ishdur. Sinf tarbiyaviy soatlarida tanlangan mavzu bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarga eng avvalo o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Mashg'ulot jarayonida ustoz o'z maqsadini o'quvchilari ongiga yetkaza oladigan, ularning qalbini to'liqlantira oladigan, ta'sirchan va ifodali bayon qila oladigan nutqqa ega bo'lishi, turli pedagogik ta'sirlar orqali singdira oladigan bo'lishi lozim.

Sinf tarbiyaviy soatlari uchun tanlangan mavzuning maqsadiga mos keladigan kuy va qo'shiqning yangrashi, badiiy o'qish, she'rxonlik, o'z ijodiy ishlaridan namunalar ko'rsatish, muhokama qilinayotgan masalaga nisbatan o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bayon qilishlariga keng yo'l berish, hayotiy muhim masalalar haqida aniq va to'g'ri xulosalar chiqarishlariga yo'naltirib borish lozim. Bu esa o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil va erkin bayon qilishga odatlantirib, ularda faollikni kuchaytiradi.

Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, unda bolalar o'qituvchi rahbarligida birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olish va sinf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent, 2014 y.

3. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.
4. U.A. Bovanova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent-2025
5. U.A. Bovanova , Berdiqobilova Kamola O'ktamovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoloyatida muammoli ta'lim yondashuvining pedagogik ahamiyati. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. IF = 8.165 www.in-academy.uz.<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarining-o-quv-faoloyatida-muammoli-ta-lim-yondashuvining-pedagogik-ahamiyati>

